

## INVESTOR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VOSITALARI

*Toshkent Davlat yuridik universiteti*  
**Boboqulov Elbek Nizom o'g'li**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi kunda tadbirkorlik, ishlab chiqarish va ulkan kapitalni talab qiluvchi sohalarni moliyalashning eng qulay usuli bo'lgan investetsiya tushunchasi, investor va uning huquqlari va uni himoya qilish usullari milliy va xorij tajribasini o'rgangan holda tahlil qilingan. Hozirgi kunda huquqlar ularning ishonchli ta'minoti dolzarb bo'lganligi tufayli ham investorni jalb qilish oson emas albatta, chunki investor uchun uning kiritgan kapitalini va uning mulkiy va nomulkiy huquqlarining himoyasi birinchi darajali albatta. Shuning uchun ham investor huquqlarini himoya qilishning keng ko'lamlil vositalarini yaratish birinchi darajali bo'lishi lozim albatta. Ushbu maqolada esa ushbu usul va vositalarni batafsil tahlilini ko'rishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *investor, investetsiya, iqtisodiy faoliyat*

**Абстрактный:** *В данной статье на основе изучения отечественного и зарубежного опыта анализируется понятие инвестиций, которые в настоящее время являются наиболее удобным способом финансирования предпринимательства, производства и отраслей, требующих огромного капитала, инвестора, а также его права и методы его защиты. В настоящее время привлечь инвестора непросто в связи с тем, что надежная защита его прав является актуальной, ведь защита вложенного капитала и его имущественных и неимущественных прав, безусловно, является первым уровнем для инвестора. Поэтому создание широкомасштабных средств защиты прав инвесторов должно стать первоочередной задачей. В этой статье вы можете увидеть подробный анализ этих методов и инструментов.*

**Ключевые слова:** *инвестор, инвестиции, экономическая деятельность.*

**Abstract:** *In this article, the concept of investment, which is currently the most convenient way of financing entrepreneurship, production and industries requiring huge capital, the investor and his rights and methods of his protection are analyzed by studying the national and foreign experience. At present, it is not easy to attract an investor due to the fact that their reliable protection of rights is urgent, because the protection of the invested capital and his property and non-property rights is definitely the first level for the investor. Therefore, the creation of wide-scale means of protection of investor's rights must be the first priority. In this article, you can see a detailed analysis of these methods and tools.*

**Key words:** *investor, investment, economic activity*

### KIRISH

Moliyaviy rivojlanish va mamlakat iqtisodiy tizimini, aholining turmush tarzini yaxshilashda nafaqat davlatning iqtisodiy kuchi balki ushbu tizimning samarali ta'minlanganlig va yo'lga qo'yilganlig ham muhimdir. Albatta O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiy tizimni rivojlantirishning eng samarali usullarini joriy qilishga urinib kelmoqda. Ushbu sohada eng katta qurol bu albatta investitsiyadir va sohada tashlangan eng katta qadamlardan biri bu 2019-yilning 19-dekabrida qabul qilingan

“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi” qonun deyiшимiz mumkin. Ushbu qonunda investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlardir. Yuqoridagi qonunga ko'ra investitsiyalar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;

- ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni.

Xalqaro doiraga nazar tashlaydigan bo'lsak ba'zi xalqaro tashkilotlar kiritilgan pul mablag'larini haqiqatda investitsiya ekanligini aniqlashda turlicha yondashuv va usullardan foydalaniladi. Misol tariqasida ICSID Konvensiyasining 25-moddasiga ko'ra “da'vo qilingan investitsiya haqiqatda investitsiya bo'lishi lozim. Tashkilot investitsiyaning haqiqatda investitsiya ekanligini aniqlashda “Salini testi” deb yuritiladigan usuldan foydalaniladi. Konvensiyaning 25-moddasiga ko'ra investitsiya haqiqatda investitsiya bo'lishi uchun quyidagi to'rtta mezonga kjavob berishi lozim;

- hissa
- xavf
- ma'lum bir belgilangan muddat
- davlatning iqtisodiyotiga qo'shilgan hissa

Yuqorida keltirilgan mezonlarga javob bersagina tashkilot kiritilgan mablag'larni investitsiya deb topadi. Salini tribulaning fikriga ko'ra ushbu talablar bir-biriga bog'liq bo'lib ular global miqyosda qo'llanilishi lozim. Albatta ushni usul barcha sudlar tomonidan qo'llanmasa ham, lekin aksariyat sudlar investitsiyalarni baholashda ushbu mezonlardan foydalanadi. Mezonlarga ba'zi sudlar tomonidan qo'shimcha yana ba'zi talablar ham qo'yilgan. Konvensiyaning 25-moddasiga ko'ra tashkilot da'vo qilingan investitsiyani haqiqatda investitsiya ekanligiga oydinlik kiritishda ushbu omillarni inobatga oladi. Demak yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki sohani rivojlantirishga qaratilgan har qanday yo'naltirilgan mablag'lar ham investitsiya bo'lavermas ekan. Investitsiya sifatida baholanishi uchun albatta munosabatlarda “risk” ya'ni xavf-xatar, haqiqatda sohaga yo'naltirilgan hissa ya'ni mablag'lar, taraflar o'rtasida munosabatning amal qilish davri, ma'lum bir muddat va ushbu munosabat natijasida davlat iqtisodiyotiga qo'shilgan hissa ya'ni bu yerda sohaning takomillashtirilganligi nazarda tutilmoqda. Ushbu mezonlar orqali biz munosabatning investitsiyaviy munosabat yoki boshqa munosabat ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Investitsiya tushunchasiga ba'zi bir xalqaro ko'p tomonlama shartnomalarda ham ta'rif berib o'tilgan bo'lib, xususan, 1997-yilda qabul qilingan Investorlar huquqlarini himoya

qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasining 1-moddasiga muvoviq investitsiya bu investorlar tomonidan foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moliyaviy va moddiy vositalarni shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni agar ular mazkur shartnomaga a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga ko'ra muomiladan chiqarilmagan bo'lsa yoki muomilda bo'lishi cheklanmagan bo'lsa, turli faoliyat obyektlariga jalb qilishdir

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ushbu maqolani yozishda analitik, statistic, qiyosiy, kuzatuv, deduktiv, mantiqiy, monitoring kabi tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek R.X.Karlibayevaning "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", N.M.Maxmudov va SH.A.Majidovlarning "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" to'g'risidagi o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi.

### **NATIJA VA MUHOKAMALAR**

Investitsiyalarni jalb qilishning samarali usullaridan biri bu investor uchun mamlakatlar tomonidan yaratilgan huquqiy sharoitlarning. Albatta har bir investor biron bir davlatga investitsiya kiritar ekan o'zining mulkiy va nomulkiy huquqlari va o'z kapitalining mustahkam "huquqiy qobiq" bilan o'ralganligiga e'tibor qaratadi albatta. Albatta investor huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida biz turli vositalarni sanab o'tishimiz mumkin. Chunki davlarning huquqiy tizimida yaratilgan sharoitlar bevosita yoki bilvosita investor huquqlarini himoya qilishi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Himoya qilish bilan bog'liq vositalar albatta bu mamlakatdagi mustahkam va tizimli tashkil qilingan huquqiy sharoitlardir. Bular jumlasiga biz quyidagilarni kiritib o'tishimiz mumkin;

- Mulk huquqining ishonchli himoyasi
- Mustaqil va ta'sir kuchiga ega sud tizimi
- Qonundagi aniqlik
- Hukumat aralashuvi hamda tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi qoidalarning aniq ta'riflarga ega ekanligi
- Yaxshi boshqaruv

Yuqoridagi huquqiy holatlar albatta investor huquqlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir qilmay qolmaydi va ushbu usullarni esa investor huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi deyishimiz mumkin. Endi ularni birma bir tahlil qilib chiqsak.

#### **Mulk huquqining ishonchli himoyasi**

Ushbu himoya qilish vositasi mamlakatga sarmoyalar oqimining kirib kelishi uchun u yerda mulk huquqi qay darajada himoya qilinganligini anglatadi. Albatta investitsiyalarning aksariyati mulkiy shaklda mablag'lar, ko'char yoki ko'chmas mulklar ekanligidan kelib chiqsak ushbu mulklarning himoyasi investor uchun birinchi darajali albatta. Xalqaro tajribadan ko'rishimiz mumkinki investitsiyalarning kirishi yuqori bo'lgan davlatlarda yerlar davlatniki hisoblanmaydi. Sababi investor mulki joylashgan yerlar osongina davlat tomonidan olib qo'yilishi mumkin bu esa mulkiy huquqlarning toptalishiga olib keladi qaysidur ma'noda. O'zbekistonda ham 2022-yilda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risidagi qonun" qaysidur ma'noda mulkiy huquqlarning himoyasini yanada mustahkamladi deyishimiz mumkin. Sababi yerlar bundan buyon xususiylashtirilishi mumkin va ularning davlat tomonidan har qanday holatda

tortib olinishiga ushbu qonun orqali ma'lum bir darajada cheklov joriy etildi desak ham bo'ladi. Shuningdek "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi" qonunga ko'ra investorlarning investitsiyalari va boshqa aktivlarining natsionalizatsiya qilinmasligi belgilandi. Ushbu qonunda shuningdek investorning investitsiya va boshqa obyektlari rekvizitsiya yoki ekspropriatsiya qilinmasligi agar qilingan taqdirda ham ular uchun belgilangan qat'iy mezonlarga amal qilinishi belgilandi. Albatta ushbu o'zgarishlar ham investor mulkiy huquqlarining kafolati deyishimiz mumkin.

#### Mustaqil va ta'sir kuchiga ega sud tizimi

Sudlarning mustaqilligi, huquqlarni himoya qilishda adolat tamoyilining yuqoriligi va ta'sir kuchiga ga ekanlig investor huquqlarining kafolati deyishimiz mumkin. "Sudlar to'g'risidagi" qonunga ko'ra sudlarning boshqa hokimiyatlardan mustaqil ekanligi, ularning faoliyatiga hech kim aralashmasligi belgilangan. Ammo ushbu qoidalarning amaliy ifodasi muhim albatta. Xorij tajribasiga qaraydigan bo'lsak CIRO (Kanada investitsiyalarning boshqarish tashkiloti) ning Kanadada o'rnatga tajribasiga ko'ra agar investor mahsulot yoki xizmatdan qoniqmasa bevosita firmaga yoki CIRO ga murojaat qilishi mumkin va shikoyatning adolatli ko'rib chiqilishi va muammoning adolatli hal etilishi ta'minlanishi lozim. Ushbu huquqlar sizni adolatsiz amaliyotlardan himoya qilish, bozor yaxlitligini ta'minlash va sizga ma'lumotli sarmoya tanlash imkonini berish uchun mo'ljallangan. Ko'rishingiz mumkinki investor huquqlarining himoyasi nafaqat sud tomonidan balki tashkilot tomonidan ham adolatli hal etilishi Kanada qonunchiligida kafolatlangan. "Investitsiyalar va investitsiyaviy faoliyat to'g'risidagi" qonunga ko'ra ham shu borada bir qancha kafolatlar nazarda tutilgan. Qonunning 23-moddasiga ko'ra qonunchilikdagi nomuvofiqliklarning investor foydasiga hal qilinishi yoki nizolar yuzasidan bevosita sudga murojaat qilish huquqining kafolatlanishi ham investor huquqlari himoyasining yaqqol dalilidir. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil investorlrga nizolarni suddan tashqari va sudgacha hal etishda bevosita yordam berishi ham kafolatlangan. Fikrimcha sud tizimida mustaqillik va mustahkam adolat tamoyillarii investor bilan nizolarning ICSID yoki UNCITRAL kabi tashkilotlarda emas balki davlatr sudlarida ko'rib chiqilishi holatlarini oshiradi. Hozirda aksariyat nizolar investorlar bilan kelishuvga ko'ra davlat sudlarida emas ICSID yoki UNCITRAL kabi xalqaro doiradagi tashkilotlarda hal qilinmoqda. Buning asosiy sababi esa mamlakat sudlariga bo'lgan ishonchsizlik albatta. Ushbu fikrim orqali yuqoridagi faoliyatni yaxshilash noo'rin demoqchi emasman albatta balki sud tizimini qanchalik rivojlantirsak investorlarda bo'lgan ishonchning shunchalik oshishiga sababchi bo'lgan bo'lamiz.

#### Qonunlardagi aniqlik

Qonunlarda aniqlikni ta'minlash orqali kelgusida yuzaga keladigan muammolarni oldini olish shu bilan birga bir-biriga qarama-qarshi normalarning qonunchilikka "bosh suqushiga" yo'l qo'ymaslik orqali qonunlarning aniq va bir xilda bo'lishini ta'minlash investor huquqlarining kafolatidir albatta. Ushbu tamoyilni investor huquqlarini himoya qilishning bilvosita usuli deyishimiz mumkin. Qonunchiligimiz kamchiliklardan holi emas albatta ammo hozirda ushbu kamchiliklarning fuqarolarning huquqiy savodligi oshishi natijasida ancha yaxshilanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu tizim qaysidur ma'noda boshqa subyektlarga ham bo'lgan deyshimiz mumkin. Sababi investor investitsiyaviy munosabatlarda bir qancha investitsiyaviy munosabat ishtirokchilari va davlat tashkilotlari bilan munosabatlarga kirishadi. Ushbu munosabatlarda aniqlikni ta'minlash ham muhimdir. Investorga taqdim etiladigan axborotning aniq va to'g'rib o'lishi nazarda tutilmoqda. Kanada qonunchiliga nazar tashlaydigan bo'lsak quyidagi jumalarga ko'zimiz tushadi: "Investor sifatidagi asosiy huquqlaringizdan biri investitsiyalaringiz haqida to'g'ri va o'z vaqtida ma'lumot olish huquqidir. Siz xavflarni, siz to'layotgan to'lovlarni va investitsiyalaringiz samaradorligini bilish huquqiga egasiz. Siz o'z hisobingiz bo'yicha muntazam hisobotlarni, shu jumladan investitsiya pozitsiyalari va tranzaksiyalar tarixi, xarajat va samaradorlik hisobotlari haqidagi tafsilotlar bilan hisob ko'chirmalarini olish huquqiga egasiz.

"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi" qonunga ko'ra O'zbekistonda investorlar huquqlarini himoya qilishda qonundagi o'zgarishlardan himoya qilish borasida ajoyib kafolat berilgan. Unga ko'ra qonunchilikdagi o'zgarishlar investitsiya qilish shart-sharoitlarini buzsa investitsiya qilish paytidagi qonunchilik o'n yil mobaynida qo'llaniladi. Ushbu kafolat ham huquqlar himoyasi borasidagi qonunchiligimizda mavjud katta bir ustunlikdir.

Xalqaro doirada "Umbrella clause" atamasiga nazar tashlash ham o'rinli bo'lar edi. Ikki tomonlama investitsiya shartnomasi (BIT) kontekstida mezbon davlatni xorijiy investorlarga nisbatan muayyan majburiyatlarga rioya qilishga majburlovchi band. Soyabon bandi qabul qiluvchi davlat xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarni yoki majburiyatlarni BITning himoya "soyaboni" ostiga kiritish orqali investitsiyalarni himoya qiladi. Investorlar ko'pincha mezbon davlatning xatti-harakatlari BITni buzmasa, da'volarni qo'zg'atish uchun hamma narsani qamrab oluvchi shart sifatida soyabon bandiga tayanadilar.

Soyabon bandlari odatda qabul qiluvchi davlatning har qanday majburiyatini qoplash uchun keng yoziladi. Odatda, shartnomani buzish xalqaro huquqqa muvofiq shartnoma himoyasini talab qilmaydi.

Hukumat aralashuvi hamda tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi qoidalarining aniq ta'riflarga ega ekanligi

Investor mezbon davlatga kirib kelar ekan xohlaydimi yo'qmi ushbu davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi. Albatta ushbu munosabatlarda mustaqillik, huquqlarning ochiq himoyalaniishi birinchi darajalidir. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra davlat investitsiya munosabatlarda investorning qonuniy faoliyatiga aralashmasligi belgilangan. Shuningdek investorning faoliyatida qoidabuzarlik fakti aniqlansa, ushbu fakti investorning investitsiyaviy munosabat bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyatiga cheklov qo'yish yoki unga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Albatta qonunchiligimizdagi ushbu kafolatlar ham investor huquqlarini himoya qilishning bir vositasidir. Misol qiladigan bo'lsak soliq munosabatlarida, yer qonunchiligi munosabatlarida davlat organlarining ushbu munosabatlarda qoidabuzarlik faktlari orqali investor faoliyatiga aralashish ko'p uchraydi. Ammo qonunchilik ushbu narsaga cheklov qo'ygan.

Endi huquqlarni himoya qilishga doir turlicha va xalqaro doirada amalda foydasi tegadigan ba'zi huquqlarni himoya qilish vositalari haqida gaplashsak.

Nazorat va tartibga solish: Dunyoning har qanday hukumati investorga qarshi himoyalash uchun qonunlar qabul qiladi. Moliyaviy institutlar bu qonunlarni amalga oshirishni ta'minlashda juda muhimdir. Qonun hujjatlari, masalan, Amerika Qo'mitasi (SEC) yoki Birlashgan Qirollikda Moliyalashtirish Vaziri (FCA) tomonidan investorlarning qiziquvchanligini himoya qiladigan qoidalarni muhofaza qilishadi. Faoliyat nazorati va tartibga solish xalqaro doirada huquqlarni himoya qilishda keng doirada e'tirof etilib deyarli barcha davlatlar tomonidan ushbu usul qo'llanadi desak ham bo'ladi. Sababi o'z hududiga investitsiya kirishini istagan har qanday davlat ushbu faoliyatning tartibini va nazoratini yo'lga qo'yadi.

Ochiqlik: Investorga moliyalashga oid to'liq va to'g'ri ma'lumotlarga kirish huquqi bor. Moliyaviy institutlar tomonidan barcha muhim ma'lumotlar, daromad, xavfsizlik va potentsial daromadlar kabi barcha ma'lumotlarni aniqlik tamoyillariga asosan oshkor qilishi lozim. Ochik muloqot investorlarning ma'lumot asosida ma'lumotli qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi va investor faoliyatida noaniqliklar yoki munosabatlarda noqulayliklar ehtimolini kamaytiradi.

Huquqiy yordam: Investorga qarshi qonun buzilish holatlari yoki huquqlari buzilish holati bo'lganda, ular huquqiy yordamdan foydalanishlari kerak. Huquqiy tuzilmalar moliyaviy institutlarning xatoliklarini to'lash, munosabatlarini hal qilish va javobgar tomonlarni har qanday ishlatish uchun vosita taqdim etish uchun ko'nikmalar beradi.

Korporativ boshqaruv: Kompaniyalar ichki boshqaruvchilikni mustahkamlash orqali investor huquqlarini himoya qilishadi, bu ochiqlik, mas'uliyat va mas'ullarning o'zaro boshqa shaxslar bilan munosabatlarda mas'uliyatli bo'lishi, korporatsiya ichki qoidalarida boshqa shaxs huquqlariga "o'zaro hurmat" ruhida yondashish nazarda tutilishi albatta investorlarning huquqlari himoyasini oshiradi. Chunki investor ko'p hollarda korporatsiyalar bilan munosabatlarga kirishadi albatta. Investorlar investitsiya qilgan kompaniyalarning boshqaruv tuzilmalari u uchun qulay muhitga ega bo'lishi lozim.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali, investorlar o'zlarining huquqlarini himoya qila oladilar va moliyaviy bozorlarda investitsiya qilish bilan bog'liq xavfni kamaytirishlari mumkin bo'ladi. Qo'shimcha ma'lumotlar olish, zarur bo'lganda professional maslahat olish va investitsiya qabul qilishdan oldin ma'lumotlar olish va xavfni boshqarish ham muhim qadamlar hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. R.X.Karlibayevaning "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" to'g'risidagi o'quv qo'llanma
2. N.M.Maxmudov va SH.A.Majidovlarning "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" to'g'risidagi o'quv qo'llanma
3. Investor huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasi. 1997-yilda qabul qilingan.
4. Sayfiyev, Azizbek O'ktam o'g'li XALQARO INVESTITSIYA HUQUQI VA UNING ASOSIY MANBALARI // ORIENSS. 2023. №4. URL:

---

<https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-investitsiya-huquqi-va-uning-asosiy-manbalari> (дата обращения: 03.04.2024).

5. Canadian Investment Regulatory Organization sayti <https://www.ciro.ca/office-investor/investing-basics/know-your-rights-investor>

6. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to`g`risidagi” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son

7. “Government regulatory agencies' websites (e.g., Securities and Exchange Commission - SEC, Financial Conduct Authority - FCA).”

8. “Legal databases and resources that focus on investor protection laws and regulations” article

9. “Financial news websites and publications covering topics related to investor rights and protection” article

10. “Reports and publications from reputable financial institutions or organizations specializing in investor rights advocacy” article